KASALLIKLARNI OLDINI OLISHDA EPIDEMIOLOGIK JIHATLAR VA PROFILAKTIKANING AHAMIYATI

Sadullayev Otanazar Kodirovich,
Egamov Muzaffar Shuxratovich,
Ilyosova Gulbonu Ilyosovna
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti

Received: 13.10.2025
Revised: 14.10.2025
Accepted: 15.10.2025

Kalit so‘zlar: epidemiologiya, profilaktika, infeksion kasalliklar, noinfeksion kasalliklar, vaksina, gigiyena, sog‘lom turmush tarzi, tibbiy ko‘rik, jamoat salomatligi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasalliklarning oldini olishda epidemiologik yondashuvning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Infeksion va noinfeksion kasalliklarning tarqalish omillari, ularning profilaktikasi va jamoat salomatligiga ta’siri tahlil qilinadi. Vaksinatsiya, gigiyena, sog‘lom turmush tarzi va muntazam tibbiy ko‘riklar kasalliklarning oldini olishdagi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, epidemiologik nazorat va profilaktik strategiyalarning sog‘liqni saqlash tizimidagi roli muhokama qilinadi.

Ключевые слова: эпидемиология, профилактика, инфекционные заболевания, неинфекционные заболевания, вакцинация, гигиена, здоровый образ жизни, медицинский осмотр, общественное здоровье

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение эпидемиологического подхода в профилактике заболеваний. Анализируются факторы распространения инфекционных и неинфекционных заболеваний, их профилактика и влияние на общественное здоровье. Вакцинация, гигиена, здоровый образ жизни и регулярные медицинские осмотры рассматриваются как основные факторы предупреждения болезней. Также обсуждается роль эпидемиологического контроля и профилактических стратегий в системе здравоохранения.
Ключевые слова: антибиотикорезистентность, медицина, устойчивость к лекарствам, инфекции, пробиотики, новые антибиотики, альтернативная терапия

Keywords: epidemiology, prevention, infectious diseases, non-infectious diseases, vaccination,

Abstract. This article examines the role and significance of the epidemiological approach in disease prevention. It analyzes the factors contributing to the spread of infectious and non-infectious diseases, their prevention, and their impact on public health. Vaccination, hygiene, a

`

hygiene, healthy lifestyle, medical check-up, public health

healthy lifestyle, and regular medical check-ups are considered key elements in preventing diseases. Additionally, the role of epidemiological surveillance and preventive strategies in the healthcare system is discussed.

Kasalliklarning oldini olish zamonaviy tibbiyotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u jamoat salomatligini yaxshilash, umr ko‘rish davomiyligini oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan.Tibbiyotda epidemiologiya fani kasalliklarning tarqalish qonuniyatlarini o‘rganib, ularning oldini olish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Aholining keng qatlamlari orasida infeksion va noinfeksion kasalliklarning tarqalishini kamaytirish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Bugungi kunda global miqyosda sog‘liqni saqlash tizimlari infeksion kasalliklarning oldini olish uchun emlash dasturlari, sanitariya-gigiyena choralari va epidemiologik monitoring kabi usullardan foydalanmoqda[3,5,8]. Shu bilan birga, yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet va saraton kabi noinfeksion kasalliklarning ko‘payishi sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va xavf omillarini nazorat qilishning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Profilaktik chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishda ilmiy tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalar va jamoatchilikni xabardor qilish muhim o‘rin tutadi. Kasalliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar nafaqat inson salomatligini himoya qiladi, balki sog‘liqni saqlash tizimiga tushadigan iqtisodiy yukni ham kamaytiradi. Kasalliklarning oldini olishda epidemiologik yondashuv va profilaktikaning ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Insoniyat tarixi davomida kasalliklar jamiyat hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Pandemiyalar, infeksion kasalliklarning avj olishi va noinfeksion xastaliklarning ko‘payishi sog‘liqni saqlash tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirishga undagan. Bugungi kunda tibbiyotning asosiy maqsadi faqat kasalliklarni davolash emas, balki ularning oldini olishga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishdir[6,10]. Epidemiologiya aynan shu maqsadni amalga oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ushbu

`

fan kasalliklarning tarqalish sabablarini o‘rganib, ularni kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Kasalliklarning oldini olishning ikki asosiy yo‘nalishi bo‘lib, infeksion va noinfeksion kasalliklarning profilaktikasi hisoblanadi. Infeksion kasalliklar, ayniqsa, tez tarqalish xususiyatiga ega bo‘lib, epidemiyalar va pandemiyalar shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, COVID-19 pandemiyasi butun dunyoga sog‘liqni saqlash tizimlarini mustahkamlash va profilaktik choralarga e’tibor qaratish zarurligini yana bir bor ko‘rsatdi. Har qanday kasalliklarning oldini olishda eng samarali vositalar- bu vaksinatsiya hisoblanadi. Tarixdan ma’lumki, chechak, qizamiq va poliomiyelit kabi kasalliklarning keng tarqalishini aynan ommaviy emlash dasturlari cheklab qo‘ygan. Vaksinalar inson organizmida immunitetni shakllantirish orqali kelajakda infeksiyalarga qarshi kurashish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish infeksion kasalliklarning tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi[2,7,9]. Qo‘l yuvish, tibbiy niqob taqish, sanitariya-gigiena talablariga rioya qilish oddiy, ammo nafaqat havo- tomshi,ishak infeksiyalarini oldini olishda,balki boshqa infeksiyalarni oldini olishda ham samarali profilaktika usullari hisoblanadi. Ayniqsa, jamoat joylarida shaxsiy va umumiy gigiyenalarga rioya qilish virusli va bakterial infeksiyalarning tarqalishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Epidemiologik monitoring va tezkor tashxislash usullari ham kasalliklarning tarqalishini nazorat qilishda asosiy vositalardan biridir. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar yordamida viruslarning tarqalish yo‘nalishlarini kuzatish va o‘z vaqtida profilaktik choralar ko‘rish imkoniyati mavjud. Boshqa tomondan, qator mamlakatlarda noinfeksion kasalliklarning profilaktikasi ham bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, saraton va nafas yo‘llari kasalliklari dunyo bo‘ylab o‘lim holatlarining asosiy sabablaridan hisoblanadi. Bunday kasalliklarning oldini olish turmush tarziga bog‘liq bo‘lib, halq orasida sog‘lom odatlarni shakllantirish orqali ularning xavfini kamaytirish mumkin. To‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan voz

`

kechish va ruhiy salomatlikka e’tibor qaratish bu borada eng samarali choralardir. Oziq-ovqat tanlovi organizm salomatligiga bevosita ta’sir qiladi. Yog‘, shakar va tuz miqdori yuqori bo‘lgan mahsulotlarni ortiqcha iste’mol qilish yurak-qon tomir kasalliklari va semirish xavfini oshiradi. Shu sababli, sog‘lom ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish, sabzavot va mevalarni ko‘proq iste’mol qilish tavsiya etiladi. Jismoniy faollik esa tana massasini me’yorda saqlash va immun tizimini mustahkamlash uchun zarurdir. Hozirgi zamonda kamharakat turmush tarzi tufayli ko‘plab kasalliklar ortib bormoqda. Kuniga kamida 30 daqiqa jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish yurak qon-tomir kasalliklari, qandli diabet va semizlikning oldini olishga yordam beradi. Zararli odatlar ham jiddiy sog‘liq muammolariga sabab bo‘lishi mumkin. Chekish, alkogolli ishimliklarni iste’moli va stress inson organizmiga katta zarar yetkazadi. Ayniqsa, tamaki mahsulotlarini insonlar tomonida keyingi paytlarda ko‘p qollanilishi o‘pka saratoni, yurak-qon tomir kasalliklari va surunkali bronxitning asosiy sababsnilaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois, tamakiga qarshi kurash va alkogol iste’molini cheklash kasalliklarning oldini olishda muhim omillardan biri sanaladi. Bundan tashqari, profilaktik tibbiy ko‘riklar va erta tashxis qo‘yish kasalliklarni oldindan aniqlab, ularning oldini olishga imkon yaratadi. Muntazam tibbiy tekshiruvlar orqali yurak xastaligi, qandli diabet va saraton kabi kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va ularning rivojlanishining oldini olish mumkin. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda profilaktik tekshiruvlar sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi[1,4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki kasalliklarning oldini olish – bu faqat shifokorlar yoki sog‘liqni saqlash tizimining ishi emas, balki har bir insonning shaxsiy mas’uliyati hamdir. Inson sogligini mustahkamlashda ularga zarur muhim odatlarni shakllantirish masalan, qo‘l yuvish, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik va rejali vaksinatsiyalarni o‘z vaqtida olish – bularning barchasi hayot sifatimizga ijobiy ta’sir qiladi. Shuningdek, infeksion kasalliklardan himoyalanishda vaksinalar qanchalik muhim ekanini yana bir bor insonlarga tushuntirib borish lozim. Ilm-fan

`

va tibbiyot yutuqlari tufayli oldin juda xavfli bo‘lgan kasalliklarning oldini olish mumkin bo‘lib qoldi. Lekin, shunga qaramay, ko‘pchilik hali ham vaksinalar haqida noto‘g‘ri tushunchalarga ega yoki ularning foydasiga shubha bilan qaraydi. Bu esa kasalliklarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Noinfeksion kasalliklarga kelsak, bularning oldini olish juda oddiy qoidalarni hayot tarzimizga kiritishdan boshlanadi. Shirinlik va yog‘li ovqatlarni kamroq iste’mol qilish, har kuni kamida yarim soat yurish yoki jismoniy mashqlar qilish, chekish va spirtli ichimliklardan voz kechish – bularning barchasi sog‘lig‘imizni uzoq yillar saqlashga yordam beradi. Eng muhimi, kasalliklarni davolashdan ko‘ra, ularning oldini olish ancha oson va arzonroq ekan. Profilaktika – bu shunchaki tavsiya emas, balki sog‘lom va uzoq umr ko‘rishning kalitidir. Agar hammamiz shu oddiy qoidalarga amal qilsak, nafaqat o‘zimizni, balki atrofimizdagilarni ham kasalliklardan himoya qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown L.,Green K.(2021)."Machine Learning for rug Allergy Prediction". Immunology Advances, 12 (2), 98-110.

2. Doe J., Smith A. (2022). "Artificial Intelligence in Microbiota Analysis and Immune Response Prediction". Journal of Medical Research, 15(3), 123-134.

3. Sokolova E. A. et al. The structure of the incidence of acute intestinal infections in children of the Southern Aral Sea region and bioimmune correction of intestinal microbiocenosis in shigellosis //Kazan medical journal. – 2024. – Т. 105. – №. 2. – С. 205-213.

4. Yoldoshevich J. K. et al. Injury And Mortality Due To Car Accidents In The Khorezm Region And The Role Of CVD In Them //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2023. – С. 8183-8187.

5. Каримова, М. А., Садуллаев, О. К., Самандарова, Б. С., & Усманов, У. У. (2025). ИЗУЧЕНИЕ СТЕПЕНИ ВЛИЯНИЯ ГЕННО-МОДИФИЦИРОВАННОГО СОИ НА НОРМАЛЬНУЮ МИКРОФЛОРУ ТОЛСТОЙ КИШКИ В ЭКСПЕРИМЕНТЕ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *5*(6), 1254-1257.

6. Садуллаев, О. К., Бабажанов, Т. И., & Бахадирова, Д. Д. (2025). ЗНАЧЕНИЕ МИКРОБИОТЫ ОРГАНИЗМА ЧЕЛОВЕКА. *AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE*, *3*(4), 287-291.

`

7. Садуллаев, О. К., Бабажанов, Т. И., & Бахадирова, Д. Д. (2025). ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И ЗНАЧЕНИЕ ПРОФИЛАКТИКИ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ ЗАБОЛЕВАНИЙ. *AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE*, *3*(4), 282-286.

8. Латипова, Ш. Б. (2021). Курбанниёзова Юлдуз Аллабергановна Ассистент кафедры фармакологии и клинической фармакологии Ургенчского филиала ТТА (Ургенч, Узбекистан). *POLISH SCIENCE JOURNAL*, 149.

9. Kodirovich, S. O., Bekturdievna, L. S., & Allaberganovna, K. Y. (2021). Comparative assessment of intestinal microbiocenoses of healthy children living in ecologically unfavorable conditions of the Southern Aral Sea region and in the city of Tashkent. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, *2*(3), 42-45.

10. Садуллаев, О. К., & Каримова, М. И. (2019). МИКРОБИОЦЕНОЗ КИШЕЧНИКА У ДЕТЕЙ, ПРОЖИВАЮЩИХ В НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ, БОЛЬНЫХ ДИАРЕЕЙ С САЛЬМОНЕЛЛЁЗНОЙ ЭТИОЛОГИИ, НА ФОНЕ ЛЕЧЕНИЯ ТРАДИЦИОННЫМИ МЕТОДАМИ. In *СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 181-184).

11. Закиров, Ш., Садуллаев, О., Самандарова, Б., Аллаберганова, З., & Каримова, М. (2020). ИЗУЧЕНИЕ НОСИТЕЛЬСТВА ПАТОГЕННОГО СТАФИЛОКОККА (S. AUREUS) У МЕДИЦИНСКОГО ПЕРСОНАЛА ХИРУРГИЧЕСКИХ ОТДЕЛЕНИЙ ЛПУ, АКУШЕРСКИХ СТАЦИОНАРОВ И ПОКАЗАТЕЛИ ПРИОБРЕТЕННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПО ОТНОШЕНИЮ К РАЗНЫМ АНТИМИКРОБНЫМ ПРЕПАРАТАМ. *Журнал вестник врача*, *1*(1), 24-27.

12. Садуллаев, О., Курбаниязова, М., & Каримова, М. (2017). Корреляционный анализ взаимосвязи нарушений микрофлоры кишечника у детей, больных с диареей проживающих в условиях южного приаралья. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (4 (97)), 190-191.

13. Садуллаев, О. К., & Курбаниязова, М. З. (2017). ИЗУЧЕНИЕ ПЛАЗМОКОАГУЛИРУЮЩЕЙ СПОСОБНОСТИ МИКРООРГАНИЗМОВ, ВЫДЕЛЕННЫХ ИЗ ФЕКАЛИИ ЗДОРОВЫХ И БОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ ДИАРЕЙНЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ПРОЖИВАЮЩИХ В ЭКОЛОГИЧЕСКИ НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (12-8), 48-50.

14. Садуллаев, О. К., & Каримова, М. А. (2017). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ГЕМОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МИКРООРГАНИЗМОВ, ВЫДЕЛЕННЫХ ИЗ ФЕКАЛИИ ЗДОРОВЫХ И БОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ С ДИАРЕЕЙ, ПРОЖИВАЮЩИХ В ЭКОЛОГИЧЕСКИ НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (12-8), 51-53.

`

15. Садуллаев, О. К., & Сувонов, К. Ж. Турли минтакаларда яшовчи хомиладорлар огиз бушлиги махалий иммунитет омиллар холати Услубий кулланма. *Ургенч.-2008.-12 б*.

16. Садуллаев, О. К., & Исмаилова, Х. Г. (2023). КАК ВОЗДЕЙСТВУЕТ ПАНДЕМИЯ COVID 19 НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА В РАЗЛИЧНЫХ ВОЗРАСТАХ И ЕГО ЛЕЧЕНИЕ. *МИКРОБИОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ*, 160.

17. Каримова, М. А., Садуллаев, О. К., Самандарова, Б. С., & Аллаберганова, З. С. (2023). Негативное влияние генетически модифицированной сои на флору толстой кишки в эксперименте. *Science and innovation*, *2*(Special Issue 8), 1780-1783.

18. Дусчанов, Б. А., Закиров, Ш. Ю., Садуллаев, О. К., & Самандарова, Б. С. (2023). О НОВОМ ШТАММЕ КОРОНАВИРУСА «ОМИКРОН».

19. Садуллаев, О. К., & Каримов, Р. О. (2018). АНАЛИЗ ДОСТИЖЕНИЙ И ПРОБЛЕМ ВАКЦИНАЦИИ. *Современные исследования*, (5), 265-268.

20. Sadullaev, O. K. (2017). REGION. *ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING IN THE REGION*, *2*, 154.

21. Sadullaev, O. K., & Samandarova, B. S. Akhmedova M.(Urgench branch of the Tashkent Medical Academy). *ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND 2017 TRAINING IN THE REGION*, 138.

22. Kodirovich, S. O. PhD, associate professor. Associate professor, department of natural sciences, Urgench branch of the Tashkent medical academy e-mail: Saduilaevotanazar@ mail. ru. *MODERN PROBLEMS OF TOURISM AND ECONOMICS…… 100*, 44.

23. Нуралиев, Н. А., Садуллаев, О. К., & Саидов, Б. О. Способ культивирования бифидобактерий для микробиологической диагностики дисбактериоза кишечника. *Рац. предложение N*, *10*.

24. Saduilayev, O. K. (2018). THE STUDY OF THE INTESTINAL MICROBIOCENOSIS OF CHILDREN SUFFERING FROM COLIANT DISEASES WITH TRADITIONAL METHODS. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, *3*(3), 44-47.

`